

YETTISUV TARIXINING O'RGANILISHIGA DOIR

X.N. TO'XTABOYEV
II kurs magistranti; TDSHI

Annotatsiya

Maqola Yettisuv tarixini o'zganishga bag'ishlangan bo'lib, unda Yettisuv tarixiga oid ma'lumotlar keltirilgan.

Yettisuv hududi azaldan Sharq va G'arbni bog'lovchi ko'prik vazifasini bajargan. Markaziy Osiyoning muhim strategik hududi sifatida mazkur mintqa azal-azaldan savdogarlar, bosqinchilar va ilm ahli uchun asosiy hudud bo'lib kelgan[1:4]. Shu boisdan mintqa aholisining tarixan shakllangan boy madaniy me'rosi, an'analari, urf-odatlar sinkretik ko'rinishda aks etadi. Bu kabi ma'lumotlar I.V.Mushketovning «Тыпическая» nomli risolasida ko'pgina faktlar orqali yoritilgan. Olim asarida Markaziy Osiyoning bir qismi bo'lgan Yettisuv haqida bir qancha ma'lumotlarni keltirib o'tadi. Xususan, uning asarlarida Turkiston aholisining o'zaro munosabatlari, turmush tarzi, ko'chmanchilarning jung'orlar hududi orqali kirib kelishi, hattoki, mil. avv. IV asrda makedoniyalik Aleksandrning Markaziy Osiyoga va Yettisuv hududlariga qilgan yurishi haqida ham ma'lumotlar beriladi[1:4].

Asarda keltirilishicha, Markaziy Osiyodan o'tgan shimoliy savdo yo'li aynan biz so'z yuritayotgan Yettisuv orqali o'tgan. Janubiy yo'l esa Terekdavan yo'li deb nomlanib, u Farg'ona va Qoshg'ar orqali o'tgan va bu yo'lni nazorat qilish huquqi xitoyliklarda bo'lgan.

Shimoliy savdo yo'li orqali Qoraqurumga janubiy rus olkasi knyazlaridan Yaroslav va Aleksandr Nevskiylar ham kelganlar[1:4-6]. Mashhur venetsiyalik sayyoh Marko Polo ham o'zining 1269-1295-yillardagi sayohati davomida, janubiy yo'l orqali Kavkaz va Armanistondan Tinch okeanigacha bo'lgan hududlarga safar uyushtirgan. U o'z sayohati davomida Markaziy Osiyoning geografiyasi va tarixi haqida Yevropaga ko'plab ma'lumotlar yozib qoldirganligi sababli uning kitobi dunyoning 60 tiliga tarjima qilingan. Marko Poloning janubiy Terakdovon yo'lidan o'tgan bo'lsada, Yettisuv o'lkasi haqida otasi Nikolay va amakisi Mateo Pololardan olgan ma'lumotlariga asoslanib, fikrlar berib o'tadi. Zero, ular 1260-yili Mo'g'ulistonga savdo qilish maqsadida Yettisuv o'lkasidan, yani shimoliy savdo yo'lidan o'tgan edilar[1:4-6]. 1280-yilga kelib mo'gullar davlati 4 qismga bo'linib, ulardan biri bo'lgan Chig'atoy ulusining markazi Ili daryosi bo'yidagi Olmaliq shahri bo'lgan[1:4-6]. Yettisuvni 1373-yillar atrofida Amir Temur zabt qilgach, XV asrgacha bu

hudud temuriylar davlati tasarrufida bo'lgan. Mazkur hududning bu davrlargacha bo'lgan tarixi to'g'risidagi ma'lumotlar yetarli emas. Yettisuv haqidagi navbatdagi ma'lumotlarni Xitoy imperatori Kansi topshirig'i bilan o'rgangan xitoy iezuitlari[2] ning tadqiqotlari orqali bilamiz. Iezuitlar 1708-yildan 1718-yilgacha imperator topshirig'i bilan keng ko'lamli izlanishlar olib borib, 1721 yilda Xitoyning umumiy xaritasini tuzishadi. Ular 1711-yilda Xami hududigacha borib, XVIII asr o'rtalarida Xitoyning g'arbiy provinsiyalarini ham, xususan, Ili daryosi va Issiq-Ko'lgacha bo'lgan hududni o'z xaritalariga kiritadilar. Aynan shu xarita nisbatan to'liq va aniqligi sababli keyingi xaritalarning tuzilishiga asos bo'lib xizmat qildi. Xitoydagi iezuitlar bilan bir qatorda Markaziy Osiyoning Yettisuv qismini Rossiya imperiyasi ham keng ko'lamda o'rgana boshladi. Rossiyaning Yettisuvni keng ko'lamda tadqiq qilish ishlari Pyotr I davrida boshlangan bo'lib, uning maqsadi Yevropaga qirg'iz va turkman cho'llari orqali boradigan yo'llarni o'rganish edi. Ayni shu maqsadda uyushtirilgan qurolli ekspeditsiyalar 1714-yilda Kaspiy tarafdin Bekovich-Cherkasskiy va 1715-yilda Sibir tarafdin Buxgolslar tomonidan amalga oshirildi. Lekin bu ekspeditsiyalar muvaffaqiyatsiz tugab, kutilgan siyosiy va ilmiy natijalarni bermagan. Shunga qaramasdan Buxgols ekspeditsiyasidan biroz vaqt o'tib, 1720-yilda Lixarev xuddi shu ishga jalb qilinadi va unga Zaysan ko'li hamda Irtish daryosi havzalarini tadqiq qilish topshiriladi. 1722-1724-yillarda Rus imperatori qalmiqlar hukmdori Sevan-Rabtandan kapitan Unkovskiyning Jung'riyaga sayohati uchun ruxsat oladi. Kapitan Issiq-Ko'lning sharqiy qirg'oqlari bo'ylab Jarg'olon va Tyupa daryolarigacha kirib boradi. O'z izlanishlari davomida ular Jung'oriyaning xaritasini tuzdilar.

Yettisuv hududini o'rganish Yekaterina II topshirig'i bilan 1771-yilda tadqiqotchilardan V. Bardanes va Z. Falklar tomonidan qayta boshlanib, ular shu yili Siverda bo'ladilar va 1793-yilda o'z izlanishlarini Tarbag'ataygacha davom qildiradilar. Tadqiqot natijasi o'laroq Falk quyidagi ma'lumotlarni keltirib o'tgan. Mazkur ma'lumotlarda Qoratovda ruda, Balxash ko'li atrofida qumtosh, Kegen va Qarqar daryolari bo'yida esa tuzli mineral tosh borligi keltirilgan. Shu bilan birga u Oqsuv (Aksu) shahrida bo'lgan zilzila haqida ham ma'lumot yozib qoldirgan. Bundan tashqari uning ma'lumotlarida hududdagi vulkan qoldiqlari, Xorgos daryosidan uncha uzoq bo'lmagan Xolak tog'ining Muzort qismidagi vulkon ochoqlari borligi ham o'rin olgan. Tarbag'atoyning sharqiy qismi Zaysannordagi Ertentov va Savrda ham vulkon o'choqlarining borligini rus tadqiqotchisi Sivers ham keltirib o'tgan[3]. Shu va boshqa ma'lumotlarga asoslanib, Gumboldt ishonish juda qiyin bo'lgan, Markaziy Osiyoda vulkanizm nazariyasini ilgari surdi. Bu kabi ma'lumotlar Tyan-Shan va Bog'da-Ola tog'lari haqida ham uchraydi.

Napoleonning Rossiya imperiyasiga harbiy yurishlarining boshlanishi Markaziy Osiyodagi izlanishlarning biroz susayishiga sabab bo'ldi. Undan sal avvalroq, XIX asr boshida mintaqaga rus tadqiqotchilaridan Burnashev va Pospelovlar ham tashrif buyurdilar. Ular o'z tashriflari davomida Semipalatinskdan Ko'kdo'mboq tog'i va Batpak (Batpakdala[4]) orqali Chu

daryosi bo'ylab ma'lumotlar yig'a boshlaydilar. Ular Qoratov orqali Toshkent shahridan ham o'tib, kerakli ma'lumotlarni yig'ib borganlar. 1803 yilda Modatov ham Issiq-Ko'lda keng ko'lamli tadqiqot ishlarini olib borib, juda ko'p tarixiy ma'lumotlarni yozib qoldirgan. Bundan ozgina vaqt o'tib 1811-yilda atoqli tarjimon Putimsev Semipalatinskdan chiqib, Olako'l yonidan, Tarbag'atoy va Chuguchak orqali Borotalu hamda Kulju daryolari bo'yiga chiqadi. Uning safaridan ikki yil o'tib yana bir tarjimon- Nazarov ham Petropavlovskdan chiqib, Toshkentga keladi. U o'z safari chog'ida Yettisuv haqida ham ko'plab ma'lumotlarni berib o'tadi[1:4-18].

Yettisuv va Sharqiy Turkistonning tarixiy jihatdan tadqiq qilinishiga ma'lum ma'noda turkiy tilli bitigtoshlarning topilishi va o'qilishi ham sabab bo'lgan. 1891-yili N.Yadrintsev Uning daryosi bo'yidan navbatdagi bitigtoshni topadi va u fanda Uning bitigtoshi deb atala boshladi. Keyinchalik izlanishlar davomida Ettisuvdan ham bitigtoshlar topildi. Ular shakl jixatidan Urxun Yozuvlaridan bir oz farq qilgan. Yozuvlarni o'qish daniyalik olim V.Tomson va rossiyalik olim V.Rad'lovlar zimmasiga tushdi[5]. 1893-yil bahorida Tomson Urxun daryosi bo'yidan topilgan yozuvlarni o'qiganligi haqida Daniya qirolligi Fanlar akademiyasi yig'ilishida axborot beradi. Uning boshqa xalqlar yozuvini deshifrovka qilib o'qishda qo'llagan tajribasi Urxun Yozuvlarining kalitin ochishda ham qo'l keladi.

Qadimgi turkiy yozuvlar tarqalgan o'lkalar orasida Markaziy Osiyoning Yettisuv hududi ham alohida ahamiyatga ega ekanligi qator topilmalar orasida isbotlanmoqda. Masalan, Yettisuvdan to Farg'ona vodiysidagi Isfaragacha bo'lgan hududlardan topilgan turkiy bitiglar, xususan, A.N. Bernshtam e'lon qilgan Farg'ona turkiy bitigi, Quvada topilgan xum sirtidagi turkiy bitig, S.T. Klyashtorniy o'qigan Farg'onadan topilgan bronza uzugiga yozilgan bitig va boshqalar bu fikrni tasdiqlaydi[6:117-139] Shu bilan bir qatorda Talas vodiysidan topilgan bitigtoshlar ham qimmatli ma'lumotlarga ega. Ushbu hududdan topilgan bitigtoshni oqish va jamoatchilikka ma'lum qilishda M.E. Massonning xizmatlari katta. Olim 1930-yilda Tereksoyda o'tkazgan arxeologik qazishmalari natijasida urxun – enasoy yozuvi shaklidagi ikki qator yozuv bitilgan tosh topdi. Yana Talasdan 1933-yilda ettita katta – kichik hajmdagi bitigtosh topildi. 60-yillarda ham O'sh viloyatining Batken tumani hududida ham qabr toshiga bitilgan va qadimgi turkiylar davriga oid bitigtosh ma'lum qilingan.

Yettisuvda ilk marotaba keng ko'lamdagi tarixiy tadqiqot ishlarining o'tkazilishi akademik V.V.Bartold nomi bilan bog'liqdir. Olimning Yettisuvga ilk ilmiy safari 1893-1894-yillarda amalga oshirildi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, V. Tompson va V. Rodlovlarning 1889-yilgi ekspeditsiyasi natijasida Orxun vodiysida qadimgi turkiy-run yozuvlarining topilishi va o'qilishi keng ilmiy jamoatchilikning qiziqishiga sabab bo'ldi. V.Rodlov 1890-1891-yilgi ekspeditsiyasidan keyin Rus Arxeologiya Jamiyatiga Yettisuv hudidiga ham ilmiy ekspeditsiya jo'natish va u yerda qadimgi turkiy yozuvlarning analogik bitiklarini izlash bilan bog'liq g'oyasini taqdim qildi. Keyinchalik Rus Arxeologiya Jamiyatining rahbarlaridan biri N.I. Veselovskiy u yerga V. Rodlovning kandidati

S.M. Dudinni jo‘natishni va unga Yettisuvda olib boriladigan arxeologik tadqiqot ishlarini to‘liq bajarish uchun sharq tillarini yaxshi biladigan kishini jalb qilish kerakligini ta’kidladi[7]. Shu tariqa ekspeditsiyaga Petreburg Universiteti dotsenti V. V. Bartold taklif qilindi.

V.V.Bartold ikki yil davomida olib brogan tadqiqotlaridan keyin Peterburgga qaytib kelib, Yettisuvda ko‘rgan-kechirganlarining xotirasi bilan yashadi. U bu haqda o‘zining keyingi yozgan kundaliklarida ham keltirib o‘tgan. U qachondir yana Yettisuvga qaytish va u yerda oxiriga yetkazilmagan ishlar hamda o‘z rejasi bo‘yicha Yettisuvni tadqiq qilishga chog‘landi. Shu orzu uni 1893-yilda Yettisuv safariga boshladi. V.V.Bartold shu yili Chimkent orqali Avliyo-Otaga keldi, Avliyo-Otadan Talas vodiysiga, u yerdan to Dimitriyevskiy qishlog‘ining janubigacha kirib boradi. Tadqiqotchi 1894-yilda orzusiga aylangan va ma’lum sabablarga ko‘ra biroz to‘xtab qolgan izlanishlarini yana davom ettiradi. V.V. Bartold tadqiqotini Avliyo-Otadan boshlab sharqqa tomon, Chuy o‘lkasigacha yetkazadi. Bunda olim quyidagi- Pishpak, To‘qmoq, undan keyin Qirg‘izistonning Issiq-Ko‘l, Norin va Qozog‘istonning Ili vodiysigacha bo‘lgan hududlarida o‘z tadqiqot ishlarini olib boradi. Mazkur davrda tadqiq qilingan janubiy Qirg‘izistonning bir qancha hududlariga 1902-yilda olim ikkinchi marta qaytib keladi[8:5].

V.V.Bartoldning 1893-1894-yillardagi tadqiqotlarining o‘ziyoq nafaqat Yettisuv, balki butun Markaziy Osiyo tarixi uchun qimmatli ma’lumotlar to‘plab berdi. Uning o‘sha yillarda qilgan barcha izlanishlari “Otchet o poezdke v Sredney Aziyu” nomi ostida Rus Arxeologiya Jamiyatining Sharq qo‘lyozmalari bo‘limida[9:339-344], Fanlar Akademiyasi tarixiy-filologiya bo‘limida[10] saqlanadi. Olimning dastlabki tadqiqotlaridan biri bu Markaziy Osiyoda xristianlik dinining tarqalishi bilan bog‘liq[11] bo‘lgan. Ya’ni, uning izlanishlari Turkiston xududlarida xristianlik bilan bog‘liq ma’lumotlar to‘plashdan boshlangan[12]. 1886-yilgi tadqiqotlar davomida Yettisuv hududi (Pishpak va Toqmaqom)dan XII-XIV asrlarga oid Nestorian (xristian) qabristonining topilishi va olimning bu bilan bog‘liq tadqiqotlari o‘z samarasini berdi. Muallifning ilmiy yangiliklari uni Yettisuv tarixini yanada chuqurroq tadqiq qilishga undadi, aynan shu asnoda V.V. Bartoldning keying tadqiqot ob’ekti Qirg‘iziston hududi bo‘lib qoldi. Oradan ozgina vaqt o‘tib V.V.Bartold barcha tadqiqotlarini umumlashtirib, “Очерк истории Семиречья” nomi ostida nashr qiladi (1898 yil). Bungacha ham olim “Очерк” nomi bilan o‘z tadqiqot ishlarini chop qilgan, lekin keyingi asari 1898-yilgacha bo‘lgan barcha tadqiqotlarining umumlashmasi edi. V.V.Bartold o‘z asarlarida Yettisuv haqidagi tarixiy ma’lumotlarni ikki yo‘nalishda berib o‘tgan: birinchisi - Janubiy Qirg‘iziston va ikkinchisi ayrim qo‘shimchalar bilan Shimoliy Qirg‘iziston tarixi sifatida keltirib o‘tilgan.

Bartold tadqiqotlari ko‘pchilikning e’tiborini Yettisuvga qaratdi va uning izlanishlari Yettisuv tarixi va geografiyasiga oid ko‘plab ma’lumotlarni ilmiy jamoatchilikga yetkazdi. Xususan uning asarlarida Yettisuv to‘g‘risidagi umumiy ma’lumotlar, u yerning tarixi, geografiyasi, Chu, Ili,

Qoratal vodiylari iqlimi, Ola-ko‘l va Issiq-ko‘l ko‘llari hamda Balxash ko‘li to‘g‘risida ma’lumotlar keltirib o‘tilgan[13:4]. Shu bilan birga, olimning Yettisuvning qadimgi davr tarixi haqidagi fikrlari ham o‘lka tarixini o‘rganishda muhim hisoblanadi.

[1] Аболин Р. «От пустынных степей Прибалхашья до снежных вершин Хантенгри». Издание Норкомзема Казахской ССР (Алмата) и института почвоведения и геоботаники САГУ (Ташкент). Ленинград – 1930 – Leningrad.C-4.

[2] Izoh: iezuitlar-xristian dinining katolik mazhabidagi reaksiya monaxlar tashkiloti a’zolari. Ularni Xitoydagi yevropalik missionerlar ham deydik mumkin.

[3] Qarang:Р. Аболин. «От пустынных степей Прибалхашья до снежных вершин Хантенгри». Издание Норкомзема Казахской ССР (Алмата) и института почвоведения и геоботаники САГУ (Ташкент). Ленинград – 1930 – Leningrad.

[4] Izoh: batpakdala-botqoqlikdan iborat bo‘lgan joy ma’nosini bildiradi.

[5] Qarang: Радлов В. В., 1892, 1896. Атлас древней Монголии // Тр. Орхонской экспедиции. Вып. 1. –СПб., 1892; Вып. 3. 1896.

[6] Кляшторный С.Г., 1981. Мифологические сюжеты в древнетюркских памятниках. // Тюркологический сборник 1977. — М.,1981.

[7] **Izoh:**butog'ridagibatafsilma'lumotLeningraddagimoddiymadaniyatyodgorliklariInstitutiqoshidagiRusArxeologiyajamiyatixarxividasaqlanadi.

[8] Бартолд В.В. Очерк истории Семиречья. Ф.: 1943 г.

[9] Rus Arxeologiya Jamiyatining Sharq qo‘lyozmalari bo‘limi t. VIII,.

[10] RosFA tarixiy-filologiya bo‘limi VIII серия, Т. I, № 4

[11]Статья представляет собой доклад, сделанный на заседании Туркестанского отдела Общества любителей естествознания, антропологии и этнографии от 11 декабря 1893.

[12]Бартолд В.В. Очерк истории Семиречья. Ф.: 1943 г. с. 4. Qarang: Zur Geschichte des Chrsrentums in Mittel-Asien bis zur mongollschen. Eroberung Tubingen, lpz; рец. E.; Chavannes в Revue de l’histoire de religions Т. XIV, стр. 123 и. Умняков; Бартолд В.В –Бюлл. Сагу, № 14, стр. 176) Туркестанских Ведомостях за 1894.

[13]“История Семирьченского казачьяго войска” Верный 1809.